"Asosiy vazifa – bu yuqori kasb mahorati va zamonaviy tafakkurga ega, puxta o'ylangan, har tomonlama to'g'ri qarorlar qabul qila oladigan, belgilangan maqsadlarga erishadigan rahbar va mansabdor shaxslarning yangi tarkibini shakllantirishdan iborat. Bu borada hududiy boshqaruv organlari, eng avvalo, mamlakatimiz tuman va shaharlari hokimliklari uchun malakali kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratish zarur. Buning uchun oliy ta'lim muassasalari tizimi bilan birga, mamlakatimizdagi 6 ta akademiya, Vazirlar Mahkamasi huzu-

ridagi Korporativ boshqaruv ilmiy-ta'lim markazi kabi tashkilotlarning ilmiy-amaliy salohiyati va imkoniyatlarini yanada faol safarbar etish darkor", – deb ta'kidladi muhtaram Prezidentimiz.

Shu nuqtayi nazardan O'zbekistonda amalga oshirilayotgan uzluksiz ta'lim tizimining islohoti ta'limda ko'p qoidalarning o'zgartirilishini, ilmiy asoslangan yangi tizimning shakllanishini va korporativ hamkorlikni keng yo'lga qo'yishda ishlab chiqilgan nazariy bilimlarimizni ishlab chiqarishga tatbiq etishni taqozo etadi [1]. Yoshlarga ta'lim va tarbiya berish bilan birga, egallagan bilimlarini korporativ hamkorlikda bevosita ishlab chiqarish korxonalari bilan bog'lashdagi murakkab vazifalarni hal etish ta'lim beruvchining g'oyaviy e'tiqodi, kasb mahorati, san'ati, iste'dodi va madaniyatiga bog'liqdir. Hozirgi zamon darsi uchta maqsadni: ta'lim, tarbiya va innovatsion korporativ hamkorlikda rivojlantirish maqsadlarini ko'zda tutadi. Shunday ekan, malakali kadrlar tayyorlash jarayonining har bir bosqichida ta'limni samarali tashkil etish, uni yuqori bosqichlarga ko'tarish borasida muayyan vazifalarni amalga oshirish lozim.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta'lim tizimiga professional boshqaruv prinsiplarini joriy etish modellari va zamonaviy tendensiyalari xorijlik olimlar T. Bush, R. Barnett, R. Middlehurst, R. Birnbaum, P. Yeckel, James J. Duderstadt, Dj. Duglas, S. Sollini, P. Macherey, Lan Bache, S. Marginson, R. Milters, Samsudin Vahab, Adlan Rahmat, Mohd Sukor Yusof, Badrisang Mohamed, M. Krou, U. Debars va boshqalarning izlanishlarida o'z ifodasini topgan.

Ch. U. Adamkulova o'zining "Oliy ta'lim sohasini modernizatsiyalash sharoitida OTM rivojlanishini boshqarishni tashkil etish mexanizmlarini shakllantirish: nazariya, metodologiya, amaliyot" nomli ilmiy-tadqiqot ishida OTM faoliyatini boshqarish tizimining konseptual asoslarini o'quv-ta'lim faoliyati, ilmiy faoliyat, metodologik faoliyat, ma'muriy-xo'jalik faoliyatiga tegishli komponentlar bilan to'ldirish taklifini asoslab bergan.

A. A. Maxmudovning "Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslarni boshqarishga oid ayrim nazariy yondashuvlar" deb nomlangan maqolasida oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishda budjet mablag'lari asosiy o'rinni egallashi, moliyalashtirish mablag'larining hajmini mamlakatning ijtimoiy rivojlanish darajasi, aholining daromadi, yalpi ishlab chiqarish mahsulotlari, moddiy bazani mustahkamlash va qo'shimcha moliyalashtirish manbalarini topish, xalq xo'jaligi tarmoqlarining oliy darajadagi mutaxassis kadrlarga bo'lgan ehtiyoji va talablariga qarab belgilanishi lozimligi ta'kidlangan [7].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Hozirgi vaqtda tashkilotlarda inson salohiyatini faollashtirish yo'llarini izlash va xodimlarning psixologik xususiyatlarini hisobga olish tashkilot faoliyatining samaradorligini oshirish omillaridan biri hisoblanadi. Oliy ta'lim sifatini oshirishda innovatsion korporativ hamkorlikning roli va ahamiyatini yoritishda deduksion va induksion yondashuvga asoslanildi. Oliy ta'lim xizmatlari bozorini innovatsion rivojlantirish tamoyillarini aniqlashda tadqiqot obyektini kuzatish, eksperiment, keys-stadi, savolnoma, etnografik metodlardan keng foydalanildi. Oliy ta'lim sifatini oshirishda innovatsion korporativ hamkorlikni tashkillashtirishda ilg'or xorij tajribalari asosida tadqiqot strategiyasi ishlab chiqildi. Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion korporativ hamkorlik faoliyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, innovatsion korporativ hamkorlik orqali oliy ta'lim sifatini oshirish yo'lining ishonchliligi va aniqligi tekshirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlarini tizimli rivojlantirish, innovatsion korporativ hamkorlikni yo'lga qo'yish va xalqaro aloqalarni rivojlantirish maqsadida ixtisoslik kafedralari qoshida 1230 dan ortiq innovatsion guruhlar tashkil etilgan, kafedralar yo'nalishiga mos zamonaviy korxonalar to'g'risida ma'lumotlar bazasi yaratilgan. 4400 dan ziyod korxona va tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari o'rnatilgan bo'lib, ularda mavjud ilmiy-texnologiya muammolar banki shakllantirilgan. Mazkur muammolar asosida 10 000 dan ortiq bitiruv-malakaviy ishlari, 3400 dan ziyod magistrlik dissertatsiyalari, 1600 dan oshiq doktorlik dissertatsiyalari va qariyb 700 ta xo'jalik shartnomalari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida ayni kunda jami qiymati 26,93 mlrd. so'mdan ortiq summa qiymatidagi 465 ta loyiha bajarilmoqda [10].

Mutaxassislar oliy ta'lim muassasalari olimlari tomonidan yaratilgan ugleroplastik, kauchuk, gidrogel, parranda va chorvachilik uchun ozuqa, tibbiyot uchun transplantant kabi mahsulot olish texnologiyasi va boshqa ishlanmalar to'g'risida ham iliq fikrlar bildirmoqda. Ma'lumki, ta'lim natijasi bo'lgan mahsulot, ya'ni yosh kadrlar iste'molchisi ta'lim xizmatlaridan foydalanuvchilar bozori hisoblangan yuridik va jismoniy shaxslardir. Dunyo va mamlakatimiz ta'lim xizmatlari bozori holati tahlilida nafaqat ta'lim sifati, balki ta'lim xizmatlarini tashkil etish, iste'molchi talablarini inobatga olish va ularni baholashga oid yondashuvlarda ham turlicha qarashlar hamda mezonlar mavjudligini ko'rish mumkin. Jamiyat hayotining rivojlanish darajasi tezlashuvi esa ta'lim xizmatlari

mahsulotga bo'lgan talab va taklifda nomuvofiqliklar kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Mamlakatimizda ta'lim sifati va bozor talablari o'rtasida yuzaga kelayotgan nomuvofiqliklar sababini quyidagilarda ko'rish mumkin [10]: ta'lim xizmatlarini tashkil etishning bozor talablaridan orqada qolishi; ta'lim xizmatlari turlarini iste'molchi bilan o'zaro bog'lanmaganligi; ta'lim muassasalari va iste'molchilar o'rtasidagi korporativ hamkorlik masalalariga yetarli e'tibor berilmasligi; ta'lim muassasalarining o'zaro innovatsion korporativ hamkorligi samaradorligi pastligi va faqat hisobotlar uchun tashkil etilishi.

Fikrimizcha, ta'lim sifatiga baho berishda unga ta'sir etadigan omillarni ta'lim tizimida ishtirok etuvchi subyektlar bo'yicha guruhlab o'rganish zarur. Bunda ta'lim tizimi subyektlari bo'yicha ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarni quyidagicha guruhlab olish maqsadga muvofiq: ta'lim siyosati ishlab chiquvchi organga bog'liq omillar; ta'lim muassasasiga bog'liq omillar; ta'lim oluvchiga bog'liq omillar; iste'molchilarga bog'liq omillar; ta'lim muassasasi va iste'molchilar innovatsion korporativ hamkorligiga bog'liq omillar.

Qayd etilgan har guruhda ta'lim sifatiga bevosita va bilvosita ta'sir etadigan omillar mavjud bo'lib, ular ta'lim sifatining ijobiy yoki salbiy tarafga o'zgarishiga ta'sir etadi. Yuqorida qayd etilganidek, zamonaviy ta'lim tizimida nafaqat kadrlar tayyorlash bilan shug'ullanish, balki ishlab chiqarishni rivojlantirish mexanizmlarini aniqlashga oid ilmiy tadqiqotlar olib borish ham zarur hisoblanadi. Dunyo ta'lim xizmatlari tarkibida ishlab chiqarishni rivojlantirish bo'yicha yangiliklar yaratish va boshqa turli xizmatlar ko'rsatishdan olinayotgan daromadlarning ulushi ortib bormoqda. Masalan, Singapur boshqaruv instituti huzuridagi "Innovatsiyalar va tadbirkorlik" instituti professor-o'qituvchilar va talabalarga turli konkurslar tashkil etish hamda yangi tashabbuslarni amaliyotga joriy etish orqali 3,7 mln. AQSH dollari grant va boshqa tadbirlardan esa 9,4 mln. AQSH dollari miqdorlar mablag' to'plab, institut bilan hammuassislikda 110 ta kompaniya tashkil etgan [21].

Mamlakatimiz ta'lim muassasalari daromadlari esa hamon budjet mablag'lari va shartnoma asosida talabani o'qitish hisobidan shakllanmoqda. Holbuki, yuridik shaxs maqomiga ega budjet tashkilotlarining barcha manbalardan olgan daromadlari 2018 yilning 1 yanvarigacha barcha soliq va majburiy to'lovlardan ozod etilgan. Mamlakatimizda ham ta'lim sifatini oshirishning mexanizmlaridan biri bo'lgan fan, ta'lim va ishlab chiqarish hamkorligini ta'minlashda innovatsion korporativ hamkorlik faoliyati taraflari hamda uning asosiy subyektlari hisoblangan professor-o'qituvchi va talabani rag'batlantirish mexanizmlaridan foydalanishga yo'l qo'yilsa, bu sohadagi ishlar ijobiy natija beradi.

Innovatsion korporativ hamkorlikni amalga oshirish, tegishli hujjatlarni shakllantirilishi, saqlanishi va yangilanib borilishini tashkillashtirish tartibi quyidagicha [5]:

- oliy ta'lim tizimining ishlab chiqarish bilan o'zaro manfaatli innovatsion korporativ hamkorligini amalga oshiruvchi asosiy boshqaruv bo'g'ini – oliy ta'lim muassasalarining mutaxassislik kafedralari hisoblanadi. Mazkur hamkorlikni yo'lga qo'yish maqsadida mutaxassislik kafedralari qoshida yetuk professor-o'qituvchilar, tegishli ishlab chiqarish korxonalari vakillari, doktorant, magistrant va iqtidorli talabalar tarkibidan iborat innovatsion guruhlar shakllantiriladi;
- innovatsion guruhlar to'g'risida mutaxassislik kafedralarida innovatsion guruh a'zolari familiyasi, ismi va otasining ismi, ish joyi va lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, innovatsion guruhdagi vazifasi hamda bog'lanish telefoni to'g'risidagi axborotni o'zida mujassamlagan ma'lumotlar shakllantiriladi, mutaxassislik kafedrasi mudir(lar)i tomonidan imzolanadi, hamkor korxona(lar) vakil(lar)i bilan kelishilgan holda fakultet dekani tomonidan tasdiqlanadi;
- ushbu ma'lumotlarning shakllantirilishi, mazmuni, har yangi o'quv yili boshlanishida yangilanishi va kafedralarda doimiy saqlanishiga mutaxassislik kafedralari mudirlari mas'ul hisoblanadi; innovatsion guruhlar tegishli mutaxassislik kafedralari ixtisoslashuviga mos zamonaviy korxonalar to'g'risida ma'lumotlar bazasini shakllantiradi;
- mazkur ma'lumotlar tegishli ishlab chiqarish korxonasi nomi, hamkorlik shartnomasi to'g'risida ma'lumot, ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish yo'nalish(lar)i (mahsuloti nomi, ixtisoslashuvi va h.k.), korxonaning manzili, rahbarining familiyasi, ismi, sharifi va hamkorlikka mas'ul xodimi to'g'risidagi axborotni o'z ichiga oladi. Ushbu ma'lumotlar mutaxassislik kafedrasi mudir(lar)i tomonidan imzolanib, hamkor korxona(lar) vakil(lar)i bilan kelishilgan holda fakultet dekani tomonidan tasdiqlanadi hamda yilning har choragida yangilanib boriladi.

Ma'lumotlarning shakllantirilishi, mazmuni, doimiy saqlanishi va o'z vaqtida yangilanib borilishiga mutaxassislik kafedralari mudirlari mas'ul hisoblanadi [21]. Oliy ta'lim muassasasi innovatsion guruhlar tomonidan mutaxassislik kafedralarida shakllantirilgan axborot bazasiga kiritilgan zamonaviy korxonalar bilan shartnomaviy aloqalarni o'rnatadi. Tegishli shartnomada oliy ta'lim muassasasi hamda ishlab chiqarish korxonasi uchun o'zaro manfaatli bo'lgan quyidagi masalalar o'z aksini topishi lozim: korxonaning o'z yechimini kutayotgan ilmiy-texnologik muammolarini o'rganish va ularni hal qilish choralarini ko'rish, jumladan, oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilari, doktorant va mustaqil izlanuvchilari, iqtidorli talabalarining intellektual salohiyatini mazkur muammolar yechimiga safarbar qilish; oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilari ilmiy-tadqiqot faoliyati natijasida yaratilayotgan ishlanmalarni ishlab chiqarishga joriy qilish; ishlab chiqarish bazasida talabalar o'quv-

ishlab chiqarish amaliyotlarini tashkillashtirish hamda professor-o'qituvchilar malakasini oshirish; oliy ta'lim muassasasi bitiruvchilarini ishga joylashtirish va boshqalar; innovatsion guruh(lar) oliy ta'lim muassasasi bilan hamkorlik shartnomasi tuzilgan har bir korxonaning ilmiy-texnologik muammolarini o'rganadi (zarur hollarda bevosita joylarga chiqqan holda), umumlashtiradi, tahlildan o'tkazadi va yagona axborot bazasini yaratadi.

Axborot bazasida innovatsion hamkor korxona nomi, ilmiy-texnologik muammo(lar) mavzusi, muammo mohiyati, talab qilinadigan yechim hamda muammoning yechimidan kutilayotgan natijaga oid ma'lumotlar to'planadi [5]. Ma'lumotlar mutaxassislik kafedrasi mudir(lar)i tomonidan imzolanadi, hamkor korxona(lar) vakil(lar)i bilan kelishilgan holda fakultet dekani tomonidan tasdiqlanadi. Ma'lumotlarni yilning har choragida yangilash lozim va ushbu ma'lumotlarning mazmuni, saqlanishi va yangilanib borilishiga mutaxassislik kafedralari mudirlari mas'uldirlar.

Ilmiy-texnologik muammolar yagona axborot bazasini ekspertiza qilish, tahlildan o'tkazish va saralash asosida namunaviy mavzular ro'yxati shakllantiriladi. Mutaxassis chiqaruvchi kafedralar ushbu muammolar yagona axborot bazasi asosida kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlar, magistrlik, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari mavzularini shakllantiradi, korxona manfaatiga muvofiq, xo'jalik shartnomalari asosida izlanishlarni tashkil etadi hamda natijalar bo'yicha ma'lumot (ishlanma)larni korxonaga taqdim etib boradi. Ma'lumotlar mutaxassislik kafedrasi mudir(lar)i tomonidan imzolanadi, hamkor korxona(lar) vakil(lar)i bilan kelishilgan holda fakultet dekani tomonidan tasdiqlanadi [25]. Ma'lumotlar har akademik semestr boshlanishida yangilanishi lozim va ushbu ma'lumotlarning shakllantirilishi, mazmuni, saqlanishi va yangilanib borilishiga mutaxassislik kafedralari mudirlari mas'ul hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasasi va uning fakultetlari miqyosida mutaxassis chiqaruvchi kafedralar (fakultetlar) nomi, kafedralardagi innovatsion guruhlar soni, innovatsion guruh a'zolari soni, shartnomaviy asosda innovatsion hamkorlik yo'lga qo'yilgan korxonalar soni, o'rganilgan korxonalar ilmiy-texnologik muammolari soni, korxonalar ilmiy-texnologik muammolari asosida yo'lga qo'yilgan ilmiy-tadqiqot ishlari soni haqidagi axborotlarni o'zida mujassamlagan umumlashtirilgan ma'lumot tayyorlanadi. Ushbu ma'lumot OTM har bir kafedra va fakultet kesimida tayyorlanadi hamda mos ravishda fakultet dekani va ilmiy ishlar bo'yicha prorektor kelishuvi asosida ilmiy ishlar prorektori va rektor tomonidan tasdiqlanadi [28].

Ma'lumotlar har akademik semestr boshlanishida yangilanishi lozim va ushbu ma'lumotlarning shakllantirilishi, mazmuni, doimiy saqlanishi va yangilanib borilishiga fakultet dekanlari va ilmiy ishlar bo'yicha prorektorlar mas'ul hisoblanadi [26]. Jahon mamlakatlarining rivojlanish tendensiyalarini o'rganish shuni ko'rsatmoqdaki, ayrim mamlakatlar rivojlangan mamlakatlar tomonidan bosib o'tilgan bosqichlarda erishilgan natijalardan foydalangan holda tezlik bilan o'z taraqqiyotini sifat o'zgarishlari va yangiliklar asosida o'zgartirishga harakat qilmoqdalar. Bunday taraqqiyotning asosliligini yaqin o'tmishda jahon miqyosida yuz bergan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz isbotlab berdi. Rivojlangan mamlakatlarda yangiliklarga asoslangan taraqqiyotning amalga oshishida ilmiy-tadqiqot muassasalari va yangiliklarning buyurtmachisi hisoblangan ishlab chiqarish tarmoqlari o'rtasidagi bog'lanishning to'g'ri yo'lga qo'yilganligi muhim omil hisoblanadi. Bunda ilmiy-tadqiqot muassasalari o'z faoliyatini bevosita ishlab chiqarish tarmoqlari tomonidan talab qilingan innovatsiyalarni yaratish asosida tashkil etmoqda va bu, o'z navbatida, yaratilgan innovatsiyalarning ma'lum bir vaqt harakatsiz qolishini oldini oladi [28].

Ilmiy-tadqiqot natijasi sifatida olingan innovatsiyalarning qisqa vaqt ichida amaliyotga joriy etishning eng samarali vositasi – bu intellektual mulklarni tijoriylashuvini ta'minlovchi tizimning shakllantirilishi hisoblanadi. Yevropa Ittifoqi tarkibidagi mamlakatlarning barchasida ham innovatsiyalarning amaliyotga joriy etilish tizimi bir xil emas. Masalan, Fransiya va Germaniyadagi oliy o'quv yurtlarida innovatsiyalar bevosita korxonalarning buyurtmasi asosida iqtidorli talabalar va magistrlardan iborat innovatsion guruhlar tomonidan yaratilib, adresli yo'naltirilsa, Ispaniyadagi oliy o'quv yurtlarida innovatsiyalarni yaratish jarayonida asosan tadqiqotchilar faoliyat ko'rsatadi va ular yaratilayotgan yangilikka bozorning talabini o'rgangan holda mustaqil faoliyat olib boradilar. Olingan natija esa universitetlar mablag'i hisobiga kichik ishlab chiqarish korxonalari ko'rinishini oladi.

Innovatsiyalar transferining Ispaniya modeli o'zining mustaqilligi va universitetlarni bevosita tadbirkorlik jarayoniga tortishi bilan boshqa mamlakatlardagi modellardan farqlanadi. Albatta, oliy ta'lim muassasalarida innovatsion jarayonlarni rivojlantirish har bir mamlakat ta'lim tizimidagi o'ziga xos xususiyatlar va qonunchilik bazasiga tayangan holda amalga oshiriladi. Axborot texnologiyalari ta'limning turli yangi ko'rinishlarini taklif etmoqda, xususan keyingi vaqtlarda modulli ta'lim tizimida majmuaviy yondashuv tamoyili kuchayib bormoqda. Unda turli shakl va usullar moslashtirilgan holda joylashtirilishi aralash ta'limning innovatsiya sifatida kirib kelishiga sabab bo'ldi. G'arb mamlakatlarida kichik innovatsion tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratiladi [25].

AQSHda innovatsion tadbirkorlikni institutsional qo'llab-quvvatlash bilan Kichik biznes ishlari ma'muriyati, Milliy ilmiy fond, NASA, universitetlar, tarmoq vazirliklari shug'ullanadi. Germaniyada bu ishni Iqtisodiyot vazirligi, Ilmiy tadqiqotlar va texnologiyalar vazirligi, Sanoat tadqiqot uyushmalari federatsiyasi, Patent markazi; Fransiyada – Iqtisodiyot vazirligi, Tadqiqotlar natijalarini joriy etish milliy agentligi, Ilmiy texnika fondi; Yaponiyada – Kichik biznesni moliyalash korporatsiyasi, Xalq moliya korporatsiyasi, Italiyada – Texnologik yangiliklar

fondlari amalga oshiradi. Bu tashkilotlarning markaziy va tijorat banklari, sug'urta fondlari bilan birgalikda kichik innovatsion tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash milliy dasturlarini samarali amalga oshirish uchun zarur asosni yaratadi. Yangi texnologiyalarni joriy etmasdan turib, jahondagi hech bir iqtisodiyot raqobatbardosh bo'la olmaydi [22].

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Oliy ta'lim tizimi sifatini oshirish hamda "fan-ta'lim-ishlab chiqarish" tizimida integratsion jarayonlarni yanada jadallashtirish maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish yetarli darajada samara berishi mumkin deb tavsiya qilamiz. Birinchidan, Toshkent shahri va viloyatlar hokimliklari huzuridagi innovatsiya faoliyati va texnologiyalarni transfer qilish markazlari faoliyatini tubdan isloh qilish lozim.

Hozirda bu markazlarning faoliyati regionlardagi innovatsiyalarni hamda innovatsion korporativ hamkorliklarni tashkil qilish maqomiga yo'naltirilmagan. Shuningdek, bu markazlarning shtat birliklari yetarli darajada shakllanmagan hamda moddiy-texnik bazaga ega emas [22]. Mavjud markazlarning faoliyat doirasini innovatsion korporativ hamkorlikni rivojlantirishga qaratib, ularning moddiy-texnik bazasini yaxshilash, ular tarkibida konsalting xizmatlarini yo'lga qo'yish, olimlar tomonidan yaratilgan innovatsion ishlanmalar transferini tashkil qilish, markaz tarkibida sinov-eksperimental sexlarni tashkil etish, risk kapitaliga ega bo'lish mexanizmlarini ishlab chiqish hamda malakali kadrlar bilan ta'minlash maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchidan, mazkur transfer markazlarida hududiy korxonalar va ularning muammolari bankini, salohiyatli olimlar bankini shakllantirish, reklama siyosatini yuritish, tomonlararo o'zaro ishonchni hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlar jamlanmasini shakllantirish maqsadga muvofiq. Uchinchidan, oliy ta'lim va iste'molchi o'rtasidagi innovatsion korporativ faoliyatni rag'batlantirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Bunda quyidagilarni e'tiborga olish lozim: innovatsion korporativ hamkorlik doirasida bajariladigan ishlarga yengillashtirilgan soliq siyosatini yuritish; innovatsion korporativ hamkorlik doirasida bajariladigan ishlarda qatnashib kelayotgan olimlar, korxonalar, talaba yoshlarni muntazam moddiy va ma'naviy rag'batlantirib borish; oliy ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlashning maqsadli tizimini yo'lga qo'yish; regionlarda innovatsion faoliyat va texnologiyalar transferi markazlari qoshida ishlab chiqariladigan innovatsion ishlanmalarni ishlab chiqarishga joriy qilishda byurokratik mexanizmlardan xoli bo'lgan tezkor tizim asosida "sinov-eksperimental status" joriy qilish; korxonalar grant mablag'lari asosida ilmiy tadqiqot olib borayotgan professor-o'qituvchi va talabaning ish haqi tarzidagi daromadini jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliqdan ozod qilish hamda ish haqi fondlariga yagona ijtimoiy to'lov hisoblamaslik tartibini joriy etish.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi ""O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF–158-son Farmoni. https://lex.uz/docs/6600413
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2022–2026 yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini tasdiqlash hamda investitsiya loyihalarini boshqarishning yangi yondashuv va mexanizmlarini joriy etish to'g'risida"gi PQ–72-sonli Qarori. https://lex.uz/docs/5801123
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi hamda boshqa davlat dasturlari ijrosi ustidan nazoratni kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ–43-sonli Qarori. https://lex.uz/docs/5768536
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi " O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF–5847-son Farmon. https://lex.uz/uz/docs/4545884
5. Abduraxmonov Q.X. "Oliy ta'lim sifatini oshirish O'zbekistonning innovatsion rivojlanishida muhim omil sifatida". // Innovatsion texnologiyalar, №2, 2021 y. – 73 b.
6. Adilova G. Innovatsiyalar oliy ta'limda O'zbekiston taraqqiyotining strategik omili sifatida. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, №3, 2016. – B. 178–187. https://inlibrary.uz
7. Ochilov A.O. O'zbekistonda oliy ta'limning innovatsion rivojlanishi. // Innovatsion texnologiyalar, №2, 2022 y. – 224 b.
8. Akramova Sh.G. Oliy ta'limning mamlakatda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishga ta'siri. // Iqtisodiyot va ta'lim jurnali, №3, 2017. – 69 b.
9. Бордовский Г.А., Нестеров А.А., Трapисын С.Ю. Управление качеством образовательного процесса: Монография. – СПб.: Изд-во РГПУ им. А.И. Герсена, 2022. – 359 с.
10. Очилов А.О. Совершенствование конструкций и методов расчётного обоснования головных частей траншейных водосбросов: автореф. дис. канд. техн. наук. 05.23.07.
11. Колядин А.П. Фиктивный компонент человеческого капитала как системный феномен экономики знаний: автореф. дис. д-ра экон. наук. – Саратов, 2022. – 30 с.
12. Полищук Л., Ливни Э. Качество высшего образования в России: роль конкуренции и рынка труда. // Вопросы образования, 2022. №1. – С. 70–86.
13. Козлов В.В. Роль и место университетов в социально-экономическом развитии России. // Проблемы современной экономики, 2022. №2 (54). – С. 337–342.

14. Никулина Ю.Н., Матюшко А.В. Внедрение результатов исследований потребителей образовательных услуг в систему управления вузом. // Проблемы современной экономики, 2021. №3 (55). – С. 363–368.
15. Режапов Х.Х. Модернизация взаимоотношения рынка труда и высшего образования в Узбекистане. // Экономика и инновационные технологии, 2021. №5. [Электронный ресурс]: https://www.researchgate.net/publication/324438795 [...]
16. Резник С.Д., Черниковская М.В., Сочилова А.А. Конкурентоориентированность и конкурентоспособность выпускника вуза: опыт, перспективы научного поиска. // Проблемы современной экономики, 2023. №3 (47). – С. 399–402.
17. Braun H., Kanjee A. Using assessment to improve education in developing countries. – Cambridge, 2021. – 303 p.
18. Поташник М.М. Управление качеством образования. – М.: Педагогическое общество России, 2021. – 448 с.
19. Селезнёва Н.А., Субетто А.И. Клавиметрия человека в образовании: методология и практика. – М.: Педагогика, 2021. – 127 с.
20. Ochilova G. Zamonaviy axborot texnologiyalari asosida pedagogik faoliyatni tashkil etish yo'nalishlari. // Arxiv nauchnix issledovaniy, 2022. №37(1).
21. Одиловна О.Г. Механизм изучения гендерных отношений в условиях цифровизации экономики. // International Journal of Development and Public Policy, 2021. №1(7). – С. 225–228.
22. Ochilova G.O. Oliy ta'lim tizimidagi islohotlar va ularning xorijiy ta'lim muassasalari bilan qiyosiy tahlili. // "Qiyosiy pedagogikaning dolzarb muammo va yechimlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Jizzax, 2022-yil, 5-may.
23. Ochilova G.O. Empirical research results of family business influence on children's motivation for entrepreneurship. // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 2020. Vol. 3(8). – Great Britain: Progressive Academic Publishing.
24. Очилова Г.О., Рузметов Б.Р., Ботирова С.Р. Бўлажак мутахассислар инновацион фаолиятини ривожлантиришда мустақил таълим олиш шаклларининг аҳамияти. // Таълим ва ривожланиш таҳлили онлайн илмий журнали, 2021. №1(6). – Б. 147–151.
25. Ochilova G. Ахборот-коммуникация технологиялари воситаларидан таълим жараёнларида фойдаланиш имкониятлари. // Архив научных исследований, 2021. №37(1).
26. Очилова Г.О. В формировании культуры общения будущих специалистов возможности использования информационных технологий. // Модернизация современного образования и совершенствование педагогической деятельности: сб. ст. II Междунар. науч.-практ. конф. – Пенза: МЦНС "Наука и Просвещение", 2022. ISBN 978-5-00173.
27. Ochilova G.O. Ta'lim tizimini raqamlashtirish va uni rivojlantirish – davr talabi. // International scientific-practical conference on "Current Issues of Bio Economics and Digitalization in The Sustainable Development of Regions", 27–28 aprel, 2022. Samarqand filiali, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti hamkorligida.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha) |
| 13.00.07 | Ta’limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2025. №4**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.